

Lab ohani

(til va imlo konferensiyasi munosabati bilan)

Imlo masalasida “lab ohani” ning foyda va qorshusig‘a so‘zlar yuradi. O‘rtoq Elbek tilning hozirg‘i tusini ko‘zda tutib “lab ohani” g‘a e‘tibor qilmasliqni yoqlaydi. (Qizil O‘zbekiston – 24) o‘rtoq Yo‘ldosh ham shu fikrni yana ham kesibrak yozadi. (Qizil O‘zbekiston – 30) o‘rtoq Qayum Ramazon bo‘lsa tilning ta‘rix va an‘anasiga so‘ylab lab ohani qonunini yangi imloda o‘rinlashdirishni ilgari suradi. Xatto amalga oshiruv uchun choralar ko‘radi. (imlo konferensiyasida o‘qulg‘on ma‘ruzasida).

Bizcha bu masala amalga oshirilmasdan burun tekshiriluvga muxtoj bir masaladir.

“Lab ohani” ning eski tillardagi xolini boshqa turkiy tillardagi xolini va o‘zbekchanning hozirgi tusidagi xolini tekshirish kerak bo‘ladi.

“Lab ohani eski tillarda qoysi darajada edi? Uni qoysi tillar soqlog‘onlar? O‘zbek omma shevasida uning yo‘qolo borishi tilning takomili – tugallanishiga to‘g‘ri yurishmiydur?” Bularni va ayniqsa so‘ng masalani yoritish kerak bo‘ladi.

Eski tillarda:

Bundan o‘n ikki asr burun yozilg‘on “O‘rxun” yozusida lab ohani qonunining borliq tarafi kuchlikrak ko‘riladi. U yozuvdan xuddi o‘zicha arab xarflari bilan ko‘chirilgan nusxasida shunday so‘zlarni ko‘ramiz: “turusin, budunag‘, tuzuk, bo‘lo‘k, ugush, uchun, yugundurmish, sukurmish, qundurmish, kuturmish, budunlig‘, bo‘lmish, ko‘rlik”. Bu so‘zlarga sinchkilab qorolso so‘zning o‘zagida lab ohanig‘a rioya qilinadi. Ammo qo‘shimchalarda rioya qilinmaydi: “mish, lig‘, lik” yoziladi. “Mush, lug‘, luk” yozilmaydi. Lab ohanining qo‘shimchalarg‘a o‘tkarmaslikda umumiy qonun bor deyilsa bo‘ladi, ammo o‘zak so‘zlarda unga rioyasiz qiluv umumiy qonun tusida emas, balki ba‘zi so‘zlarni rioya ham yozadi. Masalan: “tupasinda-tutib” tusinda yozadi. Bu kungi uyg‘urchaning qilg‘oni kabi “tupusunda tutib” tusinda yozmaydir. So‘ngra doim “o‘g‘li” tusida yozadi “o‘g‘lu” yozmaydur.

O‘g‘uz dostonida:

Ikkinchi eski yozuv bo‘lg‘on o‘g‘uz dostonida lab ohani yana ham kuchlikrak tusda bor:

“...oy xoqonung ko‘zu yorub butodi. Erkak o‘g‘ul tug‘urdi. U shul o‘g‘ulning o‘nglug‘i ko‘k erdi...yoxshi yoshdagilardan ko‘ruklu ruk erdi...”

Bu parchaga sinchilab qorolg‘on bo‘lsa so‘z o‘zagida va ham qo‘shimchalarda lab ohani qonunig‘a rioya bor. Xatto bir so‘zdagi ikkinchi qo‘shimchag‘a ham o‘tkarib yuboradi. Masalan: “ko‘rgulukruk” yozadi. Buni o‘zbekchanning hozirg‘i shevasida “ko‘riklikrak” tusida yozuv g‘a to‘g‘ri keladi.

Buning bilan barobar o‘g‘uz dostonida ham bu qonun umumiy emas. Ba‘zi so‘zlar u qonung‘a rioyasiz yoziladilar. Masalan: “bo‘ldi, ko‘rdi, turdi, o‘ldurdi, tug‘urdi” tusida yoziladi. “Bo‘ldu, ko‘rdu, turdi, o‘ldurdi, tug‘urdi” tusida yozilmaydi.

Urxun yozuvi va o'g'uz dostoni kabi ikki eski yozuvning lab ohanig'a qoroshlari bu nisbatdadur. Endi ko'raylik ayrim – ayrim tillardagi xollarni.

Uyg'urchoda:

Uyg'urchoning kerak eski va kerak xozirgi shevasida lab ohani qonung'a ko'brak rioya etilgani ko'riladi. "Devoni lug'oti turk" kabi to'qqiz asrlik bir kitobda "yuzinga, to'qishib, ko'krashur, yuldir" kabi so'zlarda rioya qilmoy yoziladi. "Unuk, qoro tutuk, suruk, uguz, bo'lub" kabi so'zlarda rioya qilinadi.

Uyg'urchaning ikkinchi eski kitobi bo'lg'on "Qutadg'u bilik"da ham ancha rioya etilgani ko'riladi. Lokin uning rioyasida tartibsizlik kattadur. Goh o'zaklarda ham rioya qilmoydi va goh qo'shimchalarg'a ham o'tkarib yuboradi.

"Ugush, ulug'lug', unutmish, o'qush, qilur, turub" kabi so'zlarda rioya qiladi. "Bo'ldi, buzinga, o'ngdi, olib" kabi so'zlarda rioya qilmaydi.

Hibatul xaqoyiq kitobida

Uyg'urchaning sakkiz asrlik "Hibbatul xaqoyiq" kitobida lab ohanig'a juda ko'b rioya bor. bu kun dunyoda nusxasi birgina bo'lg'on bu kitobning futug'rof bilan oling'on nusxasida quyidag'icha yoziladi:

"So'zum, tuzuk, bo'lub, so'nulmaz, bilgulik, ko'rguk". Buning bilan barobar anda-sanda rioya qilmoy ham yoziladi: "ko'rgil" so'zi kabi.

Uyg'urchaning eski yozuvlarida xol bundoy bo'lg'oni kabi uning xozirg'i tilida ham lab ohanig'a yuz prasant deyarlik rioya ko'riladi.

1-"oqrubu soqrub oqqon bizim daryolarning to'ldurub quvg'on esibdek to'ngdurub quvg'on so'g'uq"

2-"ketdi esdinglik qoshqo ketayluk yudo yog'uzluq yomon yog'uzluq dun kim o'lubtur hamdin havolluq yomon"

3-"ustok bo'yuda omo ooo"

Yuz qo'ynu bosub yomo ooo

Og'zing nima qon desaaaa

Bunum qonodi domo ooo

Xuton shahri qishloqlaridan bo'lg'on bir kishining ashulasidan o'z ohani bilan ko'tarilgan bu bo'lakchalarda lab ohani qonunig'a yuz prasant rioya qiling'oni ko'rilib turadi.

Qozoqlarda:

Qozoqlarning eskidan xalq og'zida qolg'on o'lanlarida, va hamda xalqning shevasida lab ohanig'a rioya kattadur. "Jutdum, juluqtum, to'lub, qo'yu, quyruq, ulun, qo'nqurot, juldurgun" tusida so'zlarshlarini bilamiz.

"Osponda ushub jurgon qoz bolosi

Jilqining jayilmaydi ozg'inasi

Jilqining chuburg'uni chulduguni

Qizdirdik kerilgini keldigini"

Ichki Qozoqistonda yoshog'on bir qozoq baxshisining o'lanidan o'z ohani bilan ko'tarilgan bu bo'lakchada yuz prasant lab ohani qonunig'a rioya ko'riladi.

Yuqoridag'i kerak uyg'urcha va kerak qozoqcha bo'lakchalarga sinchiklab qorolg'on bo'lsa lab ohani qonunig'a rioya qiling'oni ochiq ko'riladi.

“Munduy borsak churchut bor

Chingilindi burgut bor

Munduyo borsak Qo'qun bor

Qo'y qo'ngdudur akeng bor”

Avliyoota va Namangan o'rtasida o'tkan qirg'izlarning tarixi bir vaqtlarni ko'rsatuvchi bu bo'lakchada ham lab ohanig'a yuz prasant rioya bor.

Chig'atoychada:

Chig'atoy tilining uyg'urchadan ayrilib chiqqon bir til bo'lg'onini bilamiz. U til ba'zi jihatlarda uyg'urchadan uzoqroq tushgan bo'lsada uning ba'zi xususiyatlarini saqlab qolg'on shu jumladan buzubroq bo'lsada lab ohanin tutib qolg'on:

“Kofir ko'zuk yuz ming bologar meni ul o'lturmasa

Qon tukuvchi g'amzingda sen hardam menga jallod qil!

Har necha hukmungdur ravon ey shoh! Oshiqlar o'zo

Har ishni chun surulg'usi albatta “adlu dod qil!”

Eng eski Chig'atoy shoiri: “Sakkokiy” ning she'rlaridan to'rt yarim asr avval ko'chirgan bir kitobindan ko'tarilgan bu bo'lakchada “ko'zing o'lturmasa, to'quvchi, xukming, so'zlag'usi” tusida yoziladi. Sakkokiyning bundan boshqa she'rlarida ham “zulfung, ko'nglum, yuzung” tusida lab ohanig'a rioya ko'riladi.

“Ul arazu zulfung havosinda chu o'larmen

Bir kecha mazoring'a to'kulsa ne ajab nur”

Chig'atoychanning eski shoirlaridan “Lutfiy” ning eski bir qalami devonindan oling'on bu parchada ham lab ohanig'a rioya ozroq bo'lsada ko'riladi.

U asrlarning yana bir eski shoiri “Amiriy”dan shu quyidag'i bo'lakcha naqil qilinadi:

“Na yemakdin na uyqudin solib so'z

Yemakdin to'yub uyqudin yumub ko'z”

Bu bo'lakchada “uyqi, yumib, to'yib” tusida yozilmaydi. Xusayn Boyqoroning eski bir qalami devonida ham lab ohanig'a rioya bilan yozilg'onini ko'ramiz.

Navoiyning asarlarida shu paytda eski qalami yozuv ko'ralmaganim uchun misol kelturilmadim. Lokin bosilg'on asarlarida uning ham rioya bilan yozg'oni ko'rilib turadi. Zotan u o'z zamonidag'i usuldan toshqori chiqib yozg'onini o'ylashga o'rin yo'qdur. Shu xolda Chig'atoy tilida lab ohanini umumiy tusda bo'lmasada kuchlirak tusda rioya qiling'on deya olamiz.

O'zbekchada:

O'zbek tili tarixida lab ohani qonunini turli tusda ko'ramiz. Uning adabiy (yozuv) tilida lab ohanig'a rioya qilmoq tarafi kuchlirak ko'rinadi. Ammo omma xalq tilida yo'qola borg'oni ko'riladi. Bu xolning sabablari ustida fikr yuritmasdan burun ba'zi namunalarni ko'rib o'taylik.

1- "shoyad bo'lib, raso bo'lib jotdim to'ydim qonlar yutub"

Eski bir qalami nusxadan oling'on Axxmad Yassaviyning bu bo'lakchasining birinchi bo'lagida rioya qilinmaydi. Ikkinchi bo'lagida rioya qilinadi.

2- "Bu daftarkim bo'lubtur misra qandi.

Bitti yuz elli tshrt ichra tugandi".

"Ichaylik bolakim gullar sulunsor"

Olti asr avval yozilg'on va o'zbek shevasiga xos bo'lg'on bir asarda "bo'lubtur, sulunsor" tusinda o'zak so'zlarda rioya qilmoq ko'riladi.

3- "...aydi ey zaifa juftung bormu? Ul zaifa aydi. Juftim (erim) vafoti bo'lubturu..."

8 inchi asri hijriy orolarida yozilg'on bu o'zbekcha parchada ancha rioya bor: "juftung, bormu, bo'lubturu" tusida yoziladi.

4-"shabonning nasli Chingizxon urug'i

Kichik yoshdin ulug'lurning ulug'i".

To'qqizinchi asri hijriyda, Xorazmda yozilg'on bu parchada ham rioya bor.

5- mashhur "shajarayi turk" kitobi ham ko'pincha lab ohanig'a rioya qilib "turug'i, ulug'i" tusinda yozodi.

6- "qush uchirar uyasidin bachchasi

Keyin qolur uchalmayin kenjasi"

Bundan yuz yil avval Toshkanda yozilg'on bir Yusuf Zulayxo kitobidan oling'on bu parchada lab ohangig'a hech rioya yo'q.

7- "uchqur edim qanotimdin ayrildim

Yuguruk edim tuyog'imdan ayrildim

Nasib bo'lsa zo'rlik'imni bildirmay

Dushmanlarimning yurak bag'rin tildirmay

Urishda ochilir yigitning bahori

G'anim ko'rsa qoplar boturning zahri

Dushmanning bag'rini qilib tumori

Urishda torqor erning xumori

O'zbek deb odamlar mazoq qilubdur

Mazoqi bag'rimdan o'tib qolibdur".

Zamon o'zbeklari tarixlarig'a oid bir dostonchadan oling'on bu parchalarda lab ohani rioya qilinmaydi.

Elbek aytgan kabi shayboniy dostonida ham rioya etilgani ko'rilmaydi.

Bu misollarimizg'a sinchiklab qorolg'on bo'lsa omma tilidan boshqacharoq tusda bo'lg'on devoni shoirlarning asarlarida lab ohanig'a rioya qilinib yozilg'oni ko'riladi. Ammo omma xalq tilida aytilgan Axxmad Yassaviy asarida kuchsiz tusda rioya qiling'oni ko'riladi. Xalq tilida yozilg'on "Yusuf Zulayxo"da bo'lsa tamom yuqolib qoladi.

Xalq tilidan oling'on dostonida ham lab ohani yuqolib qoladi. Eski o'zbekcha asarlardan bu xissani olg'ondan so'ngra bu kungi o'zbek omma xalqining so'zlash tiliga qorosoq lab ohani qonuni yo'q darajaga borib qolg'on. Masalan, Toshkent va

atrofi shevasida “ko‘zim, yuzim, qo‘ydim, qo‘shim, uyqi, o‘g‘li, yumib, yurib, o‘zim, o‘zim” tusinda so‘zlanadi. Farg‘onaning ko‘b yerlarida ham shu xol ko‘riladi. Yolg‘uz Namangan shevasida bir oz rioya borlig‘ini ba‘zi kishilar so‘ylaydilar.

Natija:

Shu xolda ayta olamiz: o‘zbekchanning an‘ana va tarixqa bog‘long‘on adabiy tili, yozishda ommaning so‘zlash tilidan boshqa tusda lab ohanig‘a rioya qilib yozib kelgan.

Ammo o‘zbekchanning omma tilida ingichkalashishga to‘g‘ri bir takomil oqimi, Axmad Yassaviy zamoni kabi eski zamondan boshlab ochila kelgan. O‘zbekcha “uyg‘urcha va qozoqcha” kabi an‘anaviy til xolida qolib ketmagan. Bu xolning natijasida lab ohani qonunig‘a rioya qilmasliq xolati tug‘ilg‘on. Lab ohani qonunining o‘zbek omma tilida yo‘qolishi bizcha bir takomildir, til uchun go‘zallikdur. Bu xolni chet tillar tasiriga berilib bo‘lg‘on deb bo‘lmoydi. Agar chet tillar tasiriga berilib bo‘lg‘on bo‘lsa edi eng avval uning yozuv tilida bu xolning tug‘ilishi lozim keladi. Xolbuki o‘zbek adabiy tilida yuqorida aytganimiz kabi bu xol yo‘qdir. Shu xolda bu xol o‘zbek jamiatisining o‘zidan tug‘ilg‘on bir takomil oqimidur. Eski turkiy til an‘anasiga bog‘lanib tilning bu takomilig‘a e‘tibor etmasdan yo‘qola borg‘on lab ohani qonunini tirgazish, tilni buzmoq demakdur. Xususan o‘rtoq Qayum Ramazon kabi lab ohanig‘a tamom rioya qilg‘on uyg‘urchaning eski asari (Qutadg‘u bilik) ga suyalib lab ohanini qobul qilmoq va uni amalga oshirishqa kirisha bermak bizcha to‘g‘ri emasdur.

Yozuv tilining ommalashdirish asosini qobul qilg‘on bir kishi bu xolg‘a yon berolmaydi.

Bizcha lab ohani qonuni tirgizilmasin. U o‘zbek omma tilining tarixqo ko‘mgani kabi ko‘milib keta bersin.

O‘zbekchanning ba‘zi shevalarida lab ohanig‘a rioya qilish ko‘rilsada sheva birligi e‘tiborg‘a olinib kuchlik bo‘lg‘on yo‘qliq tarafi qobul qilinsin.

Istiloxlar kerak bo‘lsa lab ohanining yo‘qliq tarafida emas, balki borliq tarafida ko‘rilsun. Chunki lab ohanining yo‘qlig‘i ommaning o‘z tomonidan tilda tug‘ilg‘on ingichkalashishga to‘g‘ri bir takomildir.

Miyon Buzruk “Til imlo masalalari”.

(maqola va materiallar to‘plami).

Toshkent, 1929. 215-223-betlar